

## O'ZBEKISTONNING SOLIQ TIZIMIDAGI AKSIZ SOLIG'INING AHAMIYATI

Nilufar Mansurovna Sharipova

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Qodirova Ozoda

Denov tadbirkorlik va pedagogikainstituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7313200>

**Annotatsiya.** Bugungi kunda Respublikamizning barcha fuqorolari soliq haqida o'z tushunchalariga ega va ularning xar biri soliq to'lovchilardir. Taraqqiy etayotgan Respublikamizda soliq tizimida yangidan yangi islohotlar amalga oshirilayapti buning isboti sifatida O'zbekiston Respublikasi prezidenti 2019-yilning 30-dekabr kuni „ O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksiga o'zgartirilishlar kiritish to'g'risida''gi qonunni imzoladi. Unga ko'ra, 2020 yil Iyanvardan boshlab soliq imtiyozlari faqat Soliq kodeksi asosida taqdim qilinadi .Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi 21ta bo'lim , 71 bob va 480 moddadan iborat bo'lib, soliq turlari 13 dan 9ga qisartirildi va soliq tekshirish 3turga kamaydi, soliq to'lovchilarga ko'plab imkoniyatlar va imtiyozlar berildi .Shu jumladan, ushbu maqolada aksiz solig'i to'grisidagi yangiliklar , aksiz soliq stavkalari hamda aksiz solig'i bo'yicha berilgan imtiyozlar haqida tanishib chiqamiz.

**Kalit so`zlar:** aksiz solig'i, aksiz soliq stavkalari, aksiz solig'i imtiyozlar, AQSH solig'i.

## ЗНАЧЕНИЕ АКЦИЗНОГО НАЛОГА В НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЕ УЗБЕКИСТАНА

**Аннотация.** Сегодня все граждане нашей республики имеют свое понимание налогов, и каждый из них является налогоплательщиком. В нашей развивающейся Республике осуществляются новые реформы в налоговой системе, доказательством чего является подписание Президентом Республики Узбекистан Закона «О внесении изменений в Налоговый кодекс Республики Узбекистан» от 30 декабря 2019 года. Согласно ему, с 1 января 2020 года налоговые льготы будут предоставляться только на основании Налогового кодекса.Новая редакция Налогового кодекса состоит из 21 раздела, 71 главы и 480 статей.Многие возможности и льготы были предоставлены В том числе, в этой статье мы познакомимся с новостями об акцизном налоге, ставках акцизного налога и льготах, предоставляемых по акцизному налогу.

**Ключевые слова:** акцизный налог, ставки акцизного налога, льготы по акцизному налогу, налог США.

## SIGNIFICANCE OF EXCISE TAX IN THE TAX SYSTEM OF UZBEKISTAN

**Abstract.** Today, all citizens of our republic have their own understanding of taxes, and each of them is a taxpayer. In our developing Republic, new reforms are being carried out in the tax system, as evidenced by the signing by the President of the Republic of Uzbekistan of the Law "On Amendments to the Tax Code of the Republic of Uzbekistan" dated December 30, 2019. According to him, from January 1, 2020, tax incentives will be provided only on the basis of the Tax Code. The new version of the Tax Code consists of 21 sections, 71 chapters and 480 articles. Many opportunities and benefits have been provided. Including, in this article we will get acquainted with the news on excise tax, excise tax rates and excise tax reliefs.

**Keywords:** excise tax, excise tax rates, excise tax relief, US tax.

## KIRISH

Davlat iqtisodiyotni tartibga solish va ichki milliy bozorni rivojlantirishda hamda himoyalashda asosan aksiz solig'iga tayanadi . Davlat soliq tizimi vujudga kelishida to'g'ri ya'ni, bevosita soliqlar shakllanib, keyinchalik davlatning vazifalari kengayib borgandan so'ng bilvosita soliqlar, xususan aksiz solig'i paydo bo'ldi va amaliyotga kiritildi. "Aksiz,, so'zi fransuz tilidan kelib chiqqan bo'lib , topib tanlash ma'nosini bildiradi. Aksiz solig'inining asosiy vazifasi mablag' yig'ishdan iborat. Soliqlar xusasan, aksiz solig'i davlat budgeti daromadlari shakllantirishda asosiy soliqlardan hisoblanadi. Davlat budgeti daromadlari tarkibida eng yuqori soliq tushumlari ushbu soliqlardan tashkil topadi. Davlat aksiz solig'i orqali mamlakat hududiga ayrim tovarlarni ko'proq olib kirish yoki olib chiqish va buning aksini ifodalovchi vazifalarni bajarishi mumkin. Aksizlar- tovarlar uchun qo'yiladigan bilvosita soliqlarning bir turi bo'lib qo'shilgan qiymat solig'idan farqli ma'lum bir chegaralangan tur va guruhdagi mahsulotlarning narxiga qo'shiladi. Aksizlar tovar narxiga qo'shiladi va davlatga uning qiymatidan bir qismini olishga yoki kesib olishga imkon beradi. Ustiga qo'yilgan qo'shimcha narx mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilishning alohida sharoitlaridan kelib belgilanadi. Aksizni keng va tor ma'noda talqin qilish mumkin. Tor ma'noda bu tushuncha ostida , alohida tovarlarga aksizlar tushuniladi. Keng ma'noda esa aksiz tushunchasi individual aksizlarni ham ,universal aksizlarni ham qamrab oladi. Ular o'rtaqidagi farqi uni undirish usuli hisoblanishi va amal qilish sohasiga bog'liq.

## TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Hozirgi vaqtida soliq tizimida aksizlar davlat moliyaviy resurslarini shakllanib borishi uchun muhim rol o'ynaydi. Aloida tovarlardan aksiz solig'ini undirish zarurligi ulardan budgetni to'ldirishning qo'shimcha manbayi sifatida foydalanishdan tashqari, alohida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish zarurligi bilan ham bog'liqdir.

Ular jumlasiga:

1. Atrof muhit holatiga va inson salomatligiga zarar keltiradigan tovarlarlar iste'molini cheklash , ya'ni alkogol va tamaki mahsulotlari, avtomobil benzini.
2. Yuqori daromad olinadigan aholi iste'moli daromadlarini qayta taqsimlashga bo'lgan ehtiyojlar.
3. Davlat monopoliyasida bo'lgan (neft, gaz ) mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiyadan kelgan yuqori daromadni qayta taqsimlashga bo'lgan ehtiyoj kabilarini kiritish mumkin

Aksizlar asosan atrof –muhitga va inson salomatligiga zarar keltiradigan hamda zeb-ziynat buyumlaridan undirila boshlangan. ushbu yondashuvga asosan, gilamlar, billur buyumlar, markali vinolar, tabiiy teridan tikilgan kiyimlar aksiz solig'i undiriladigan tovarlar ro'yhatidan chiqarilgan.

Shuningdek,exportga chiqariladigan tovarlardan aksiz solig'i undirilmaydigan bo'ldi, chunki ulardan ustama to'lov sifatida bojxona to'lovlari undiriladi. Soliq tizimini yanada takomillashtirish, iqtisodiyotda xufiyona aylanmani qisqartirish maqsadida joriy yilda yangi tahrirdagi Soliq kodeksi amalga kiritildi. Unga muvofiq, soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi. 2019 yilda budget ma'lumotlarining ochiqligini yanada oshirish maqsadida budget mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini o'rnatishning yangi tartibi belgilandi hamda ilk bor Davlat budgeti qonun tarzida qabul qilindi.Uchinchidan, davlat xizmatlarini taqdim etish va ma'muriy taomillarni tartibga solishning huquqiy va institutsional asoslari takomillashtirildi.

“2020 yil uchun O’zbekiston Respublikasining davlat buyjeti to’g’risida” gi qonun bilan ishlab chiqariladigan tovarlarga (ko’rsatiladigan xizmatlarga) aksiz solig’i tasdiqlangandi. Respublikamizda birinchi marta aksiz solig’i stavkalari qonun bilan tasdiqlanmoqda. Shu kabi oxirgi hujjat 2019 yil 1-oktabrdan boshlab aksiz solig’i stavkalarini joriy etgan Prezidentning 26.09.2019 yildagi Pf-5837-son farmoni bo’lgan.

## TADQIQOT NATIJALARI

2019 yilga qadar aksiz solig’i stavkalari har yili 1-yanvardan boshlab o’zgargan. 2019 yildan boshlab aksiz solig’i stavkalari yilda ikki marta o’zgara boshladи 1- yanvardan va 1-oktabrdan. Soliqlarni to’lash muddatini uzaytirish yoki bo‘lib-bo‘lib to’lashga ruxsat berish bo‘yicha yengillashtirilgan mexanizmlar joriy etildi.

1-rasm.

Soliq turlari.




Barcha rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimlari ko’pgina umumiy hususiyatlarga ega va ayni paytda bir-biridan farq qiladi.

Hozirgi kunda Amerika Qo’shma Shtatlari soliq tizimi takomillashgan bo’lib, bunda soliqlar faqatgina budgetni to’ldirish, ya’ni fiskal funksiyani bajaribgina qolmay, balki iqtisodiy rivojlanishning asosiy tayanch elementlariga aylanadi.

2-rasm.

AQSH soliqlarning yillardagi taqsimot grafigi



AQSH soliq tizimi uch darajali bo'lib, ular: federal, shtat va shahar soliqlariga bo'linadi. AQSh soliq tizimida biznes sektorini soliqqa tortish quyidagi soliqlarni o'z ichiga oladi:

- daromad solig'i federal byudjet daromadlarining 9 foizi va davlat daromadlarining taxminan 5 foizi miqdorida korporatsiya qiladi;
- kapital aktivlarni qaytadan sotishdan olinadigan daromad solig'i;
- ayirboshlash va kapital bilan aniqlanadigan tadbirdorlik faoliyati va davlat solig'i.

## MUHOKAMA

Oxirgi ikki soliqlar, asosan kichik byudjet uchun "tartibga solish" rolini va moliyaviy oqibatlarini ko'rsatadi. 8% - soliq tizimining maxsus xususiyatlari xizmatlar va tovarlar turlari cheklanganlik soni bilan undiriladigan aksiz solig'i kichik rolini o'z ichiga olishi mumkin, bunda soliq stavkasi 0% oralig'ida bo'ladi. SH soliq tizimi va O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining solishtirma tahlili.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi 2 pog'onali:

1. Umumdavlat soliqlari;
2. Mahalliy soliqlar va yig'imlar.

Yuqorida ko'rganimizdek AQSH soliq tizimi uch pog'onali, ya'ni:

1. Federal soliqlari;
2. Shtat soliqlari;
3. Shahar soliqlari.

Respublikamiz umumdavlat soliqlariga asosan doimiy tushumga ega bo'lgan va budjedg a muhim o'rinn tutadigan soliqlar yo'naltiriladi. Bularga: jismoniy shaxslar daromadiga soli q, yuridik shaxs daromadiga soliq, aksiz solig'i, QQS, davlat boji, bojxona boji va boshqa soliqlar kiradi.

## XULOSA

AQSH federal budget soliqlarida esa asosan to'g'ri soliqlar hissasiko'proq to'g'ri kel adi. Ikki davlat uchun o'xshashlik jihatni har ikkala budgetga ham muhim ahamiyatga molik bo'lgan soliqlar yo'naltiriladi. Farqli jihatni esa O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida hozirgi kunda egri soliqlar hissasiko'proq, shu sababli egri soliqlar ham umumdavlat soliqlarida muhi m ahamiyatga ega, AQSH federal budgetida esa egri soliqlar deyarli yo'q, chunki mamlakat budgetida egri soliqlarning hissasi kam bo'lib AQSH federal budgetiga jismoniy shaxslar d

aromad solig'idan keyin ikkinchio'rinda (budjetdagi salmog'i bo'yicha) ijtimoiy sug'urta aj ratmalari va korporatsiyalar daromadiga soliq kiradi. Bundan kelib shuni aytish mumkinki, O'zbekistondagi egri soliqlar tushumini kamaytirib, umum davlat soliq daromadini yanada isloh qilib tushumlarni ko'paytirishimiz kerak.

## REFERENCES

1. "O'zbekiston mlliy ensiklopediyasi ". Toshkent. 2000.
2. "Soliq huquqi "darslik.Toshkent .2016.
3. <http://my.gov.uz.soliq>
4. Manba: <https://www.staffcop.ru>
5. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019-y., 03/19/599/4255-son; 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son)
6. "O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi" yangi tahriri .2019.